

THE EXPRESSION OF SUFISM IN NAVOI'S PERSIAN POETRY

Salomova Nigina

Annotation: This article analyzes the reflection of Sufism in Alisher Navoi's Persian poetry, his methods of expression, terminology, and the system of artistic imagery. It also examines the essence of his works in comparison with the mystical paths expressed in the Persian works of Hafiz, Sa'di, and Jalal al-din Rumi. On the basis of comparative analysis, Navoi's Persian divan reveals that his mystical views were directed toward spiritual perfection, divine love, and human moral development. His lyrical expression of love is interpreted as both earthly and heavenly, symbolizing the path to divine truth and eternity.

Keywords: Alisher Navoi, Persian poetry, Sufism, Artistic expression, Hafez, Sa'di, Jalal al-din Rumi, Spiritual perfection, Spiritual purity.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy forsiy she'riyatida tasavvufning ifodalanish usullari, terminlar va ramzlarning badiiy hamda falsafiy mazmuni, shuningdek, tasavvufdagi maqomlar tizimi tahlil qilinadi. Hofiz, Sa'diy va Jaloliddin Rumiy ijodidagi tasavvufiy ruh bilan Navoiy forsiy asarlaridagi mazmuniy uyg'unlik va farqlar qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Alisher Navoiy forsiy devonida tasavvufni ilohiy ishq va insonning ruhiy komillikka intilishi orqali yuksak badiiylik bilan ifoda etadi. Uning she'rlarida ishq insonni fano va baqoga olib boruvchi yo'l sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, forsiy she'riyat, tasavvuf, badiiy san'at, Hofiz, Sa'diy, Rumiy, ma'naviy kamolot, ruhiy poklik.

Kirish

Alisher Navoiy nafaqat turkiy, balki forsiy adabiyotning ham yirik namoyondasi sifatida tasavvufiy ruhni o'zining badiiy-estetik qarashlariga chuqur singdirgan ijodkordir. Forsiy she'riyatida u tasavvufni insoniy kamolotga eltuvchi yo'l, ichki poklanish va ruhiy yuksalish manbai sifatida talqin etadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Navoiy ijodida tasavvufiy qarashlar nafaqat diniy-ma'rifiy mazmunda, balki badiiy ramzlar, majoz va timsollar vositasida ifoda etiladi. Maqolaning maqsadi - Navoiy forsiy she'riyatidagi tasavvufiy termin va ramzlarni tahlil qilish, ularni Hofiz, Sa'diy va Jaloliddin Rumiy kabi buyuk fors-tojik adiblari merosi bilan qiyosiy o'rganish.

Alisher Navoiy yoshligidan tasavvuf ta'limotiga qiziqib, Naqshbandiya tariqati ruhida tarbiyalangan. Forsiy she'riyatida u o'zining ma'rifiy va irfoniy g'oyalarini chuqur falsafiy obrazlar orqali ifodalaydi. Tasavvufda mavjud "ishq ilohi", "safar", "fano" kabi g'oyalar uning forsiy g'azal, qasida va masnaviylarida asosiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Quyida Navoiyning tasavvufiy terminlar, ramzlar va maqomlarining ayrim tahlillarini ko'rib o'tamiz.

Navoiyning forsiy she'rlarida uchraydigan asosiy tasavvufiy terminlar:

- Ishq - ilohiy muhabbat , Allohga yetishish yo'li.
- Fano - nafsdan voz kechish, borliqdan kechib Haq bilan birlashish holati.
- Baqo - fano maqomidan keyin hosil bo'ladigan abadiy ruhiy barqarorlik.

Suluk - ma'naviy sayr, shayx rahbarligida ruhiy yuksalish yo'li.

Ramzlar:

- Sharob - ilohiy ishq mastligi.
- Mayxona - Haqni sevuvchilar majlisi.
- Yor - Haqning o'zi yoki ilohiy haqiqat.

Sabo - ishq xabarchisi, ilohiy ilhom shamoli.

Maqomlar tizimi tasavvufda muridning bosib o'tadigan ruhiy pog'onalarini bildiradi. Navoiy forsiy she'riyatida maqomlar bevosita nomlar bilan yoki ramziy timsollar orqali ifodalanadi. Masalan:

“Ajab ranjeki andin sa'b yo'q ranj,

Vale chekkan kishining bahrasi ganj.”

Bunda sabr oxiridagi foyda ganj - xazinaga qiyoslanyapti. Ramziy ifoda: sabr - og'ir, achchiq bo'lishiga qaramay, insonni ma'no sari yetaklovchi ulov, dorivor dori kabi tasvirlangan.

Hofiz, Sa'diy, Jaloliddin Rumi bilan qiyosiy jihatlar.

Hofiz: Tasavvufiy ramzlarni erkin, ko'pincha maishiy obrazlar bilan uyg'unlashtiradi. Masalan, ishq Hofiz she'riyatida ilohiy ma'noda emas, balki ramziy va dunyoviy may orqali ifodalanadi. Ijodkor ilohiy ishqni ham, dunyoviy ishqni ham o'zaro qorishiq tarzda talqin qiladi.

“Mayxona yo'lidagi birovni gunohkor dema,

Chunki, bu yo'lning ohirida haqiqiy ishq bor.”[1]

Navoiy esa Hofizga o'xshash tarzda ishq va may obrazlaridan keng foydalanadi, lekin unda ma'naviy qatlam yanada kuchliroq. Unda ishqning ma'nosi mutlaqo ilohiy ishqqa qaratiladi. Unga ko'ra, haqiqiy oshiq faqat Allohdir, dunyoviy ishq esa ilohiy ishqqa eltuvchi yo'ldir.

“Har kimki ishqdin bebahra erdi,

Odam emas, hayvon o'xshash erdi.”[2]

Sa'diy “Bo'ston” va “Guliston” asarlarida tasavvufiy hikmatlarni axloqiy pand-nasihatlar shaklida beradi.

“Nodonga ilm o'rgatmoq - cho'chqaga dur sochmoqdir.”

Sa'diy ilmni axloqiy tarbiya asosida tushuntirsa, Navoiy uni tasavvufiy yo'l bosqichlariga bog'laydi:

“Shariat bir chiroqdir, tariqat bir yo'l,

Haqiqat manzildir, ma'rifat esa suvdur.”

Tasavvufda ramz sifatida keladigan nay obrazini oladigan bo'lsak, Rumi - nayni ruhning Allohdan ayrilishi ramzi sifatida ishlatib, Navoiy nayni hijron va ishq sadosi orqali namoyon qiladi.

Rumi - Masnaviy:

“Bu nayni tingla, u ayriliqlardan hikoya qiladi.” [3]

Navoiy - Devoni foni:

“Nay faryod qildi yor hijronidan,

Har toridan qon tomadi dildagi kuydan.”[4]

Rumi ishq va fano ramzlarini ko'proq falsafiy umumlashma tarzida beradi. Navoiy forsiy devonida Rumiya yaqin ruhda yozadi, ammo u fano va baqoni aniqroq Allohning nuri bilan bog'laydi.

Xulosa

Alisher Navoiy forsiy devonida tasavvufiy qarashlarni yuksak badiiylilik bilan ifoda etadi. Uning ijodida tasavvuf, avvalo, ilohiy ishqqa yetishish, insonni ma'naviy komillikka olib borish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy uchun ishq - ruhiy poklanish, fano va baqo maqomlariga erishishning kalitidir.

Qiyosiy jihatdan qaraganda, Hofizda ishq ko'proq ramziy va estetik zavq sifatida tasvirlansa, Sa'diyda u axloqiy saboqlar bilan uyg'unlashadi, Rumiya esa ishq mutlaq haqiqat sari yo'naltiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Navoiy bo'lsa bu qarashlarni o'ziga xos tarzda uyg'unlashtiradi: Hofizdagi ishqiy lirizmdan, Sa'diydagi axloqiy hikmatlardan va Rumiya

kosmik-mistik yondashuvlardan ta'sirlangan holda, ularni turkiy va forsiy she'riyat ruhida qayta talqin qiladi.

Shu bois Navoiy forsiy she'riyatida tasavvuf naqadar badiiy estetik hodisa, balki axloqiy-ma'naviy mukammallikning asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa uni jahon tasavvufiy adabiyotidagi eng yuksak shaxslar qatoriga qo'shdi.

Snoska:

1. Hofiz Sheroziy. Devon. Tehron.:Enteshorot-e Amir Kabir, 1983. - G'azal. N:3.
2. Alisher Navoiy, "Lison ut-tayr". Toshkent: Fan, 1989. - 215-bet.
3. Jaloliddin Rumi. Masnaviy-I ma'naviy. Tehron: Amir Kabir, 1989. - Daftar 1, bayt 1, 28,110.
4. Alisher Navoiy. Devoni (Forsiy devon). Tehron: Anjoman-e asar va Mafaxer-e Farhangi, 1970. - G'azal N6.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hofiz Sheroziy. Devon. Tehron.:Enteshorot-e Amir Kabir, 1983. - G'azal. N:3.
2. Alisher Navoiy, "Lison ut-tayr". Toshkent: Fan, 1989. - 215-bet.
3. Jaloliddin Rumi. Masnaviy-I ma'naviy. Tehron: Amir Kabir, 1989. - Daftar 1, bayt 1, 28,110.
4. Alisher Navoiy. Devoni (Forsiy devon). Tehron: Anjoman-e asar va Mafaxer-e Farhangi, 1970. - G'azal N6.
5. Sa'diy, M. Guliston. - Dushanbe: Adabiyot nashriyoti, 1987.
6. Yoqubov, H. Navoiy va tasavvuf. - Toshkent: O'qituvchi, 1991